DOI

Kamolova S.B.
BuxDPI Tillar fakulteti 1-bosqich talabasi
Ravshanova N.R.
BuxDPI Tillar fakulteti 1-bosqich talabasi

O‘ZBEK VA FRANSUZ VA TILLARIDAGI O‘XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *ushbu maqolada fransuz va o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari to’grisida fikr yuritiladi.*
Kalit so’zlar: *ajdodlar, o‘xshatish, qiyosiy tahlil , leksik komponent , milliy dunyoqarash , lingvomadaniy*

Kamolova S.B.
BuxDPI Faculty of languages 1st Stage Student
Ravshanova N.R.
BuxDPI Faculty of languages 1st Stage Student

COMPARISONS IN UZBEK AND FRENCH AND LANGUAGES LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES

Annotation: *This article discusses the linguocultural features of analogies in French and Uzbek.*
Keys words: *ancestors, analogy, comparative analysis, lexical component, national worldview, linguocultural*

Kelajagimizning munosib vorislari bo‘lgan yosh avlodga ta‘lim-tarbiya berish vazifasini malakali pedagogik mahorat hamda nutq madaniyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar to‘laqonli amalga oshirishi mumkin. Bu muqaddas kasb egalaridan zamon talablari va yangiliklarini o‘z faoliyatlarida qo‘llay olishni, fan nuqtai nazaridan saviyasini muntazam oshirib borishni va ijtimoiy-siyosiy savodxonligini, yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonlarida qo‘llashni talab etadi. O‘qituvchining pedagogik mahorati, asosan, darsda o‘quvchilarga mavzuni yetkaza bera olishda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o’rganishga hamda ular bilan milliy tilimiz xususiyatlarini qiyoslashga bo’lgan qiziqish kun sayin ortmoqda.Tobora rivojlanayotgan O’zbekistonning kelajakda yanada taraqqiy etishi va yuksalishida xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy –ma’rifiy a’loqalarning mustahkamlanib borishida chet tillarni atroflicha mukammal o’rganishning ahamiyati beqiyosdir.

O‘xshatishlar turli xalqlar madaniyatini yaqqol namoyon qilib beruvchi vositalardan biri hisoblanadi.Ularda ma’lum davrda yashagan ajdodlar

https://wordlyknowledge.uz

kechinmalari, tasavvurlari, milliy va madaniy an'analari muhrlangan bo'ladi. Tildagi o'xshatishlarni tadqiq etgan tilshunoslarning aksariyati turg'un o'xshatishlarning idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo'lishini, ular ko'p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo'llanish natijasi sifatida turg'unlashib, so'zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolishini, o'xshatish etalonining, ya'ni o'xshatish asosidagi obrazning muayyan belgi-predmet bilan muntazam va qat'iy bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi. Fransuz va o'zbek tillaridagi mavjud o'xshatishlarni qiyosiy tahlil qilganda, o'xshatish etaloni sifatida ko'pincha hayvon yoki jonivorlarlarni bildiruvchi so'zlardan foydalanilganligini ko'rish mumkin. Masalan, o'zbek tilida "qo'yday yuvosh", "musichaday beozor" o'xshatish etalonlari mavjud bo'lib, bu o'xshatishlar orqali o'zbek mentalitetiga xos jihat, ya'ni qadimdan qo'yning yuvosh hayvon, musichaning beozor, zararsiz qush ekanligi ifodalanmoqda.Fransuz tilida esa beozorlik timsoli sifatida ko'pincha kabutar tasvirlanadi: "Aussi inoffensive qu'une colombe". Fransuz va o'zbek tillarida sinonimlik xosil qiladigan quyidagi o'xshatishlarni ham xuddi shunday qiyosiy tahlil qilish mumkin: "Aussi affame comme ours" iborasi o'zbek tilidagi "Bo'riday och" o'xshatish etaloniga teng keladi. "Och" so'zining bo'ri bilan birga ishlatilishi o'zbek lingvkulturologiyasiga xos bo'lib, o'zbek xalq ertaklaridagi och bo'ri ko'z oldimizga keladi. Jumladan, mif, ertak, doston va badiiy asar qahramonlari ishtirok etgan muayyan o'xshatishlar mavjud bolib, ular orqali o'sha xalq milliy madaniyatini chuqur anglab yetish mumkin. Masalan, o'zbek tilida "baquvvat, pahlavon, gavdali, juda ham kuchli, bahodir" ma'nosida ishlatiladigan "Alpomishday" o'xshatish etaloni fransuz tilidagi "jasur va botir" ma'nosida qo'llanuvchi "aussi courageux comme Robert'' o'xshatish birligi bilan sinonimlik xosil qiladi. Ingliz va o'zbek tillarida uchraydigan o'xshatishlar orasida leksik component tuzilmasi jihatidan bir xil yoki turli xil bo'lgan turlarni uchratish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "aussi rouge cerise" iborasida ishlatilayotgan cherry (gilos) so'zi o'zbek lingvokulturologiyasiga ham xos bo'lib, qiz bolaning lablarini tasvirlashda foydalaniladi. Shuningdek, ingliz tilidagi "sournois comme un renard" iborasi o'zbek tilidagi "tulkiday ayyor" o'xshatishiga sinonim bo'ladi. Bu sinonimlikda ham leksik component tuzilmasi jihatidan bir xillikni kuzatish mumkin. Bundan tashqari, o'zbek tilida "semirmoq", "ko'p ovqat yemoq"ni anglatgan cho'chqaday o'xshatish etaloni ingliz tilida ham cho'chqaga muqoyasa qilinadi: "Aussi gros qu'un chien". Masalan,: La femme du supermarché était grosse comme un cochon. Ammo, fransuz tilidagi "blanc comme un feuille" iborasidagi papier (qog'oz) leksemasi o'zbek tilidagi o'xshatish etaloni bo'lib xizmat qilmaydi. O'zbek tilida bu rang ko'proq qorga qiyoslasa bo'ladi: "Qorday oq". Shuningdek, fransuz tilida uchraydigan "aussi propre comme une (nouvelle) epingle" iborasi o'zbek tilida "chinniday toza" o'xshatishiga teng keladi. Fransuz tilida tozalik belgisi sifatida yangi to'g'nag'ich madaniy vosita sifatida xizmat qilmoqda. O'zbek tilida esa bu sifat chinni buyumga muqoyasa qilinmoqda. O'zbek tilida "qo'yday yuvosh" o'xshatish etaloniga ma'no jihatidan sinonim

https://wordlyknowledge.uz

bo'lgan ingliz tilidagi "aussi doux qu'un agneau" o'xshatishi leksik komponent tuzilmasiga ko'ra farq qiladi. Ya'ni, o'zbek xalq madaniyatida yuvoshlik "qo'y"ga qiyoslansa, fransuz tilida bunday sifat "qo'zichoq" bilan bog'liq tarzda qo'llaniladi. Masalan,: La fille est aussi douce qu'un agneau quand elle est avec sa petite soeur. Bundan tashqari, o'zbek tilida ijobiy ta'riflanayotgan oppoq tishlar "qor"ga emas, balki qimmatbaho "sadaf"ga qiyos etiladi. M., Yo'q, Xor shaharga ketgan, - dedi yigit kulimsirab, sadafdek oppoq tishlarini ko'rsatib . O'zbek she'riyatida tunday o'xshatish etalonidan sochning qoraligini ifodalash uchun keng foydalaniladi: M,: Kel endi tashlama, qo'yma .Bu tunning qo'ynida yolg'iz. Hijronni boshimga yoyma, Ey tundek sochi qora qiz (Cho'lpon. Tun). Mazkur o'xshatishni fransiyalik shoir Victor Hugo she'rida uchratish mumkin. Victor Hugo "A celle qui est voilée" she'rining o'zbek tillaridagi tarjimalarini quyidagicha tahlil qiladi:

Tu me parles du fond d'un rêve
Comme une âme parle aux vivants.
Comme l'écume de la grève,
Ta robe flotte dans les vents.
Mazmuni:"Menga tushning tubidan gapirasan
Jon tiriklar bilan gaplashgandek.
Sohil ko'priklari kabi,
Sizning liyimingiz shamolda hilpiraydi

Fransuz tilida agar soch qarg'aga o'xshatilsa, fransuz o'quvchisi faqat qarg'a (zog') ning o'zini emas, balki uning rangini tushunadi.Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, shotland lingvomadaniyatida sochning qoraligi zog'(qarg'a)ga qiyoslanadi. Binobarin, Shotlandiya shimoliy o'lka hisoblanib, u yerda yilning deyarli barcha faslida zog'larni uchratish mumkin. O'zbek lingvomadaniyati uchun me'yoriy hisoblangan o'xshatish etalonlari ingliz tilida so'zlashuvchi boshqa xalqlarning lisoniy mental an'analari uchun begona bo'lishi mumkin.

Masalan, o'zbek lingvomadaniyatida ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba'zan kulchaga peinture o'xshatishadi. Fransuzlarda esa olchaga, atirgulga (rouge comme cherry /rose/) qiyoslash me'yor hol hisoblanadi. Bundan tashqari, "cherry", "rose" leksemalari narsa-buyumlarni ham qizilligini tasvirlashda ko'p qo'llaniladigan o'xshatish etaloni hisoblanadi. Masalan: Après la nouvelle peinture,la voiture est devenue rouge cerise.Le lever le soleii du matin etait aussi rouge qu'un rose. Shuningdek, baquvvat kishilarni o'zbeklar filga,fransuzlar otga va ho'kizga muqoyasa qilishadi: filday baquvvat, aussi forte q'un cheval,tourneau. Yoki, o'zbeklar tinimsiz ishlaydigan, mehnat qiladigan kishilarni chumoliga (chumoliday), inglizlar esa ariga va itga o'xshatishadi (aussi occupe qu'une abelle, travaillant comme un chien). Masalan: L'Homme etait aussi forte qu'un boeuf et nous a facilement aidés à deplacer le canapé .Elle travaille toujours comme un chien.Umuman, o'xshatishlar har bir xalqning

https://wordlyknowledge.uz

lingvomadaniy boyligi bo‘lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki , har ikkala tilda o‘xshatishlarga oid juda ko‘p misollar aytib o‘tish mumkin .Zero, o‘xshatishlar tufayli inson qalbidagi kemtik g‘oyalar , fikrlarni bayon eta oladi va turli voqealarni har xil misollar bilan yetkazishi, tushuntirishi mumkin.Og‘zaki va yozma nutqda qo‘llaniladigan bunday frazeologizmlar tillarni leksik-semantik , grammatik jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. SH. Rahmatullaev O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi. 1978. -6-7 b.
2. F. Jumaeva Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi. Monografiya. Toshkent. “Qaqnus Mediya” Toshkent 2019.-136 b. 3
. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. –Toshkent: Fan, 2005. –B. 219-220.
4.Sirojiddinov SH., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. –B. 80.
5. Некрасова Н. Сравнения общеязыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных идиолектов // Лингвистика и поэтик. –М.: Наука, 1979. –С. 225.

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz